

BOBUR SHE'RIYATINING BADIY XUSUSIYATLARI VA G'OYAVIY TAHLILI

Hamitova Farangiz Musurmon qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi

Hamitovafarangiz@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 07.06.2026

Revised: 08.06.2026

Accepted: 09.06.2026

KALIT SO'ZLAR:

Zahiriddin
Muhammad Bobur,
dunyoviy lirika,
g'oyaviy tahlil, badiiy
mahorat, tajnis, tazod,
tatabbus, realistik
tasvir, vatan sog'inchi.

Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari shoirning g'azal va ruboiylari misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda Bobur ijodidagi dunyoviylik, ma'rifatparvarlik va vatanparvarlik motivlarining o'ziga xosligi yoritib berilgan. Alisher Navoiy an'analarining davomi sifatida yaratilgan janriy shakllar, xususan, tatabbus hamda matnda qo'llanilgan tajnis va tazod kabi she'riy san'atlarning funksional vazifalari matniy tahlillar orqali asoslangan. Maqola shoir lirikasidagi realistik tasvir uslubi va xalqchil til xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kirish

Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasi XV asr oxiri — XVI asr birinchi yarmi o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotini yangi janriy va estetik mezonlar bilan boyitgan o'ziga xos badiiy hodisadir. Shoir ijodi Sharq she'riyatining an'anaviy lirik turlarini qamrab olgan bo'lib, asosan ikki yirik majmua — "Kobul devoni" va "Hindiston devoni" hamda muallifning qomusiy xarakterdagi "Boburnoma" asari tarkibida bizgacha yetib kelgan. Bobur she'riy merosining konseptual asosi hisoblangan ushbu devonlarning eng ishonchli va

qadimiy qo'lyozma manbalari bugungi kunda Parij milliy kutubxonasi hamda Hindistonning Rampur shahri fondlarida saqlanmoqda³.

Adabiy-tarixiy jarayon qonuniyatlariga ko'ra, Bobur poeziyasi Lutfiy va Alisher Navoiy kabi buyuk salafalar an'analarini izchil davom ettirgani bilan xarakterlanadi. Biroq shoir lirikasini Sharq mumtoz she'riyatidagi an'anaviy tasavvufiy-majoziy yo'nalishlardan ajratib turuvchi asosiy mezon — undagi dunyoviylik (realistik tasvirga moyillik) pafosidir⁴. Akademik adabiyotshunoslikda Bobur ijodini tadqiq etish, uning badiiy-estetik prinsiplarini aniqlash va asarlari matnida aks etgan ijtimoiy-shaxsiy ziddiyatlarni ochib berish mumtoz she'riyat evolutsiyasini to'g'ri baholashda fundamental ahamiyat kasb etadi.

Bobur she'riyatida real hayotni e'tirof etish, sevgini dunyoviy go'zallik sifatida qabul qilish va hayot lazzatlaridan bahramand bo'lish kayfiyati yetakchilik qiladi. U hayot mazmunini yaxshilikda, shirin suhbat va ma'rifiy davralarda deb biladi. Uning ushbu qarashlari chuqur falsafiy mushohada va hayotiy obrazlarga boy bo'lgan quyidagi g'azalida mukammal aks etgan:

Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatlari,
She'r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati.
Yoz faslida chog'ir ichmakning o'zga holi bor,
Kimga bu nash'a muyassar bo'lsa bordur davlati.
Ishq dardin chekib har kimki topsa vasli yor,
Ul zamon bo'lg'ay unut, yuz yilg'i hijron shiddati.
...Gar bu uch ishni topsang ul uch vaqt ila,
Mundin ortiq bo'lmag'ay, Bobur, jahonning ishrati⁵.

Birinchi va ikkinchi baytlar sharhi: Shoir g'azalning muqaddimasida inson hayotini chinakam baxtga to'ldiradigan uchta fundamental omilni parallel ravishda sharhlaydi. Birinchisi — go'zal tabiat muhiti (yoz fasli), ikkinchisi — oliy insoniy tuyg'ular va uning natijasi (ishq dardi, yor vasli), uchinchisi esa — intellektual va madaniy muhit (do'stlar suhbatlari, she'r bahsi). Baytdagi «bodaning kayfiyati» va keyingi satrdagi «chog'ir ichmak» (sharab) tushunchalari an'anaviy tasavvufiy ramzlar (ilohiy ishq timsoli) emas, balki hayotga muhabbatli erkin insonning quvnoqlik va ruhiy xushnudlik holatining realistlik sharhidir. Kimga mana shunday uyg'unlik va ruhiy erkinlik (nash'a) nasib etsa, eng katta boylik (davlat) uniki.

³ Hasanov, S. Bobur merosining qo'lyozma manbalari tadqiqi. — Toshkent: Sharqshunoslik, 2015. — B. 12.

⁴ Ergashev, A. Mumtoz she'riyatda janr va uslub tabiati. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019. — B. 46.

⁵ <https://baburid.uz/library/108>

Uchinchi va yakuniy baytlar sharhi: Oshiq va mahbuba munosabatlari kontekstida inson ruhiyatining murakkab qirralari ochib beriladi. Inson oshiq bo'lib, «ishq dardi»ni astoydil chekmas ekan, vaslning qadriga yetmaydi. Matnning psixologik sharhi shuni ko'rsatadiki, uzoq kutilgan visol lahzasi shunchalik buyuk kuchga egaki, u o'quvchida chuqur emotsional taassurot qoldirib, o'tmishdagi «yuz yillik» ayriliq, azob va qiyinchiliklarni (hijron shiddati) bir lahzada ongdan butkul o'chirib yuboradi. Maqta' (yakuniy bayt)da esa shoir o'z shaxsiga murojaat qilib, dunyodagi eng oliy rohat va baxt (jahonning ishrati) aynan mana shu moddiy va ma'naviy ne'matlarning yaxlitligida ekanini qat'iy falsafiy xulosa sifatida sharhlaydi.

Ruboiylarda ilm va axloqiy mezonlar talqini

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek mumtoz adabiyotida ruboiy janrini yangi uslubiy xususiyatlar bilan boyitgan usta san'atkordir. Uning falsafiy ruboiylari hayotiy, sodda va tushunarli tilda yozilgan bo'lib, ularda ilm-ma'rifat ulug'lanadi, insonning jamiyat va odamlar oldidagi axloqiy burchi sharhlab beriladi. Shoir inson faqat va faqat ilm orqali komillikka erishishi mumkinligini ta'kidlab, ilm olishning subyektiv (ichki) shartlarini shunday sharhlaydi:

Kim yor anga ilm, tolibi ilm kerak,
O'rgangali ilm, tolibi ilm kerak.
Men tolibi ilmu tolibi ilm yo'q,
Men bormen ilm tolibi, ilm kerak.⁶

Sharh: Bu ruboiyda shoir «ilm» va «tolibi ilm» so'zlarining takrori (tardis san'ati) orqali g'oyani eng yuqori nuqtaga olib chiqadi. Ilm insonga shunchaki o'z-o'zidan do'st (yor) bo'lib qolmaydi. Buning uchun kishida eng birinchi navbatda chinakam ishtiyoq, muhabbat, astoydil intilish, chidam va g'ayrat (toliblik) bo'lishi shart. Shoir o'zini ilm yo'liga to'liq baxsh etgan shaxs sifatida ko'rsatib, jamiyat a'zolarini nodonlik va jaholatdan qutulishning yagona chorasi — ilm talab qilish ekanligini uqtiradi.

Insoniy munosabatlardagi eng oily qadriyat — yaxshilik va vafodorlik ekani, har bir harakatning oqibati o'ziga qaytishi haqidagi hayotiy haqiqat esa quyidagi mashhur ruboiysida mukammal sharhlangan:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlig' hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur.

⁶ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – B. 142.

Sharh: To'rtlik inson munosabatlaridagi dialektik (sabab-oqibat) qonuniyatining she'riy ifodasidir. Bobur inson qismatini mavhum diniy qoliplarga emas, balki uning o'z fe'l-atvori va jamiyatda qilayotgan amallariga bog'laydi. Har bir inson o'z qilmishiga yarasha javob oladi: vafoga — vafo, jafoga — jafo. Yaxshi inson o'zining ezgu tabiati tufayli hech qachon ma'naviy inqirozga uchramaydi (yomonlig' ko'rماغay), yomonlik yo'lini tanlagan kimsalar esa ertami-kechmi munosib jazoga uchrashi muqarrardir⁷.

Vatan ishtiyoqi, g'urbat dardi va ijodiy ziddiyatlar sharhi

Bobur poeziyasining eng ta'sirchan va ruhiy fojialarga boy qismi — Vatan sog'inchi, musofirlik (g'ariblik) azoblari va taqdirdan nolish motivlaridir. Bu yo'nalish bevosita shoirning murakkab tarixiy kurashlarga boy hayot yo'li, Shayboniixonidan qattiq shikast yeb, o'z ona yurti Andijon va Samarqandni tashlab chiqishga majbur bo'lgan sarguzashtlari bilan uzviy bog'liqdir.

Hukmdor shaharlaridan va cheksiz boyliklaridan ajralgan og'ir damlarda ham u dastlab tushkunlikka tushmay, kelajakka umid bilan qaradi, dushman ustidan g'alaba qozonishiga ishonadi:

Dushmanki dahr zabardast qilur,
Naxvat mayidin bir necha kun mast qilur,
G'am yemaki yetursa boshini ko'kka,
Oxir yana yer kabi oni past qilur.

Ruboiy sharhi: Shoir hayotiy adolatga ishonadi. Dushman (Shayboniixon) dahr (zamona) hukmi bilan vaqtincha g'olib kelgan va kibr (naxvat) mayidan mast bo'lgan bo'lsa-da, bu abadiy emas. Vaqt kelib g'olib dushman qanchalik yuksakka ko'tarilmasin, baribir yer bilan bitta qilinadi. Biroq shafqatsiz tarixiy voqelik shoirni mag'lubiyatga uchratavergach, unda chorasizlik va taqdirga tan berish ohanglari boshlanadi:

Ko'ngli tilagan murodga yetsa kishi,
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi,
Bu ikki muyassar o'lmasa olamda,
Boshni olib bir sorig'a ketsa kishi.

Bobur o'z Vatanidan ayrilib, o'zga ellarda (Afg'oniston va Hindistonda) ulkan saltatga asos solgan bo'lsa ham, o'zi tug'ilib o'sgan tuprog'ini bir lahza ham unutmaydi. Kobulda muzaffar hukmdor bo'lib turgan kezlari do'stlariga yozgan maktub-ruboiysida o'zining u yerdagi holatini shunday sharhlaydi:

⁷Jumaniyozov A. Bobur va uning axloqiy qarashlari. – 2009.

Beqaydmenu xarobi sim ermasmen,
Ham mol yig'ishtirur laim ermasmen,
Kobulda iqomat qildi Bobir dersiz,
Andoq demangizlarki, muqim ermasmen.

Sharh: Shoir o'zining bu yerlarda qolib ketayotganini boylikka (sim) o'chlik yoki dunyo yig'uvchi pastkashlik (laim) deb o'ylamasliklarini so'raydi. U o'zini Kobulda doimiy muqim deb hisoblamaydi, uning qalbi hanuz o'z vataniga — Andijon va Samarqandga qaytish orzusi bilan yashayotganini bildiradi. Ammo yillar o'tib, ortga qaytish imkoniyatlari tamoman uzilgach, g'urbat tuyg'usi uning ruhiyatini tamoman egallab oladi:

Yod etmas kishini g'urbatta kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi,
Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi oh,
G'urbatta sevinmas emish albatta kishi.

Bu baytlarda shoh Bobur emas, balki g'urbatda ruhan ezilgan musofir inson fojiasi butun bo'yi bilan namoyon bo'ladi. Musofirlikda (g'urbatda) insonni hech kim samimiy yod etmaydi, barcha quvonchlar quruq mehnat (mashaqqat)ga aylanadi. Shoir o'z ichki yolg'izligini va darmonsizligini yashira olmay, dunyoda o'ziga eng yaqin sirdosh sifatida faqatgina o'z jonini ko'radi:

Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,
Ko'nglimdin o'zga mahrami asror topmadim...

Boburning ichki fojiasi Hindistonga yurish qilib, uni zabt etganidan keyin yanada chuqurlashdi. U o'zining bu qadamini hayotidagi eng katta xato deb hisoblab, qattiq nadomat chekadi:

Tole yo'qki jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishnikim, ayladim xatolig' bo'ldi.
O'z yorni qo'yib Hind sori yuzlandim,
Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Sharh: Bu satrlarda shoir ijodidagi eng yirik va murakkab ziddiyat (qarama-qarshilik) namoyon bo'ladi. Bir tomondan, Bobur ulkan imperiyaga asos solgan, dunyoni titratgan qudratli jahongir, shoh; ikkinchi tomondan esa o'z xatosidan (Vatanni tashlab ketganidan) kechalari qon yig'layotgan ruhiy g'arib, yuz qora oshiqdir. Uni o'rab turgan feodal muhit, shohlik maqomi unga ortga qaytishga yo'l qo'ymas edi. Chorasiz qolgan hukmdor o'z fojeasini endi ilohiy taqdirga bog'lashdan o'zga chora topolmaydi: «Tengrining xosti mundoq

esa men netaymen»⁸. U hayotining so'nggi yillarida dunyodan tamoman ko'ngli qolib, umidsizlik og'ushida hayqiradi:

Charxning men ko'rmagan jabru jafosi qoldimu,
Xasta ko'nglum chekmagan dardu balosi qoldimu?
Ey ko'ngul, gar Bobir ul olamni istar qilma ayb,
Tangri uchun de, bu olamning safosi qoldimu?

Shoir zamon va falakning (charx) barcha jabrini tortganini aytib, bu dunyoda hech qanday go'zallik va vafo (safo) qolmaganini, shu sababli narigi dunyoni (ul olamni) istayotganini bildiradi. Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, bunday tushkun kayfiyatlar Bobur ijodining hammasini belgilamaydi, balki uning murakkab hayotiy to'qnashuvlaridan tug'ilgan o'tkinchi holatdir. Uning ijodida baribir hayotga bo'lgan cheksiz muhabbat, axloq va ma'rifatparvarlik yetakchi kuch bo'lib qolaveradi.

Alisher Navoiy an'alarining davom ettirilishi va "Koshki" g'azali sharhi

Bobur buyuk salaflari Lutfiy va Alisher Navoiy mahorat maktabidan unumli o'rgandi. U Navoiyning mashhur «Koshki» radifli g'azaliga o'xshatma (tatabbu) bog'lab, oshiqning firoq va hijron azobidagi ruhiy holatini yuqori darajada ifodalab berdi:

Ko'rmagay erdim jamoli olamaro koshki,
Bo'lmag'ay erdim bori olamg'a rasvo koshki.
Ishq bog'ining niholi g'am, bari hirmon emish,
Qilmag'ay erdim bu gulshanni tamosho koshki.
Qilmag'ay erdi ko'ngul ishqin havas, bal tilga ham,
Kechmagay erdi aningdek lafz aslo, koshki.
Qoshi yolar kuyida umri sharif etguncha sarf,
Qilg'ay erdim masjidu mehrob aro jo koshki.

Badiiy va uslubiy sharh: Bu g'azalning yetakchi badiiy xususiyati — undagi afsus, nadomat va ichki pushaymonlik ohangining g'oyatda izchil berilganidir. Har bir bayt oxirida kelayotgan va armon ma'nosini yuklovchi «koshki» radifi she'rning emotsional intonatsiyasini (ichki ritmini) ta'minlagan. Shoir sevgi deb atalmish tuyg'uni chuqur tahlil qilar ekan, uning asosi g'am va noumidlikdan (hirmon) iborat nihol ekanini sharhlaydi. Oshiq o'z sevgisidan shunchalik qiynaladiki, yor ko'chasida butun bir aziz umrini sarflagandan ko'ra, o'zini din arboblari kabi «masjidu mehrob» ichiga qamab, ibodat bilan o'tkazganida

⁸ Sodiqov T. Bobur she'riyatining falsafiy asoslari. – 2003.

bu qadar rasvo bo'lmashligini orzu qiladi. Bu lirik so'roq oshiq dardining naqadar cheksizligini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Maxsus she'riy san'atlar va obraz yaratish mahorati

Shoir she'riy matnda so'zlarni shunchaki quruq bezak yoki ma'nosiz o'yin uchun qo'llamaydi, balki har bir she'riy san'at ma'noni kengaytirish va lirik qahramon holatini ochish uchun funksional xizmat qiladi.

- O'xshatish va Tazod (Qarshilantirish) san'ati sharhi: Shoir yorning beqiyos husn-jamoli va uning qarshisidagi oshiqning ojiz holatini an'anaviy lirik obrazlar orqali go'zal ifodalaydi:

Sen gulsenu, men haqir bulbuldurman,
Sen shu'lasenu, ul shu'laga men quldurman.
Nisbat yo'qtur deb ijtinob aylamakim,
Shohmen elga, vale senga quldurmen.⁹

Tahliliy sharh: Birinchi va ikkinchi misrada yor — oliy go'zallik timsoli bo'lgan gul va shu'laga, oshiq esa unga intiluvchi bulbul va qulga o'xshatilgan. Bu yerda eng muhim badiiy yuk maqta'da kelgan tazod (zidlash) san'atidir. Bobur o'zining real hayotdagi eng oliy ijtimoiy maqomini (shohlikni) mahbuba qarshisidagi holati (qullik) bilan qarshilantiradi. Buning falsafiy ma'nosi shuki, chinakam dunyoviy sevgi oldida har qanday siyosiy qudrat, saltat va shohlik tojlari o'z qiymatini yo'qotadi; sevgi maydonida shoh ham oddiy bir qulga aylanadi.

- Tajnis (So'z o'yini) san'ati sharhi: Bobur xalq tilining boyliklaridan, omonim (shakldosh) so'zlardan foydalanishda yuksak mahorat ko'rsatgan ijodkoddur. Quyidagi mashhur bayt bunga yorqin dalildir:

Qaddimni firoq mehnati yo qildi;
Ko'nglum g'amu anduh o'tig'a yoqildi.
Holimni sabog'a aytib erdim, ey gul,
Bilmom sanga sharh qilmadi yo qildi.

Lug'aviy va badiiy sharh: Ushbu parcha o'zbek adabiyotidagi eng mukammal tajnis namunalaridan biridir. Shoir uch o'rinda shaklan bir xil eshitiladigan, ammo mazmunan butunlay boshqa-boshqa bo'lgan so'z birikmalarini qo'llagan:

- Birinchi misradagi «yo qildi» — ayriliq g'ami oshiqning jismoniy qaddini kamondek egib, yoy (o'q otadigan yoy) holatiga keltirdi degan ma'noni bildiradi.

⁹ Abdullayev M. Ruboiylar: tarixiy, adabiy va axloqiy talqinlar. – 2016.

• Ikkinchi misradagi «yoqildi» — oshiq ko'nglining g'am va anduh olovida yonganligini, o'tga tashlanganligini anglatadi.

• Uchinchi o'rindagi «yo qildi» esa — saba (tong shamoli) mening dardimni sening qoshingga yetkazdimi yoki qildimi (yoki yetkazmadimi?) degan so'roq mantiqini ifodalaydi.

Ohangdosh so'zlarning bunday ustalik bilan tahlil qilinishi she'r matniga betakror ichki joziba bag'ishlash bilan birga, lirik qahramonning ayriliq keltirgan jismoniy va ruhiy iztiroblarining mukammal badiiy portretini chizishga xizmat qilgan.

Xulosa

Maqolada tahlil qilingan she'riy namunalar, xususan, "Yoz fasli, yor vasli" g'azali va falsafiy ruboiylar ko'rsatadiki, ijodkor an'anaviy tasavvufiy ramzlardan chekingan holda, hayotiy haqiqat va dunyoviy go'zallikni birinchi planga olib chiqqan. Shoir falsafasida ilmga intilish, vafo va jafo tushunchalari mavhum simvollar emas, balki insonning axloqiy burchi kontekstida, xalqchil tilda ifoda etilgan. Shuningdek, matnlarda yoritilgan musofirlik anduhi buyuk imperiya hukmdorining shaxsiy fojeasi va dramatik ruhiy holatini ochib beruvchi avtobiografik xarakterga egadir.

Boburning badiiy mahorati Alisher Navoiy an'analari zamirida individual poetik uslub yaratganida ko'rinadi. Buni afsus va armon ohanglarini kuchaytirgan "Koshki" radifi, ijtimoiy va lirik maqomni zidlovchi tazod hamda shakldosh so'zlarning uch xil ma'naviy qirrasini ochib bergan "yo qildi" tajnis san'ati to'liq isbotlaydi. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, Bobur she'riyati o'zbek mumtoz adabiyotida realistik tasvir mezonlarini shakllantirgan va o'zbek lirikasi tilini xalqchil soddalik bilan boyitgan beqiyos ijodiy fenomendir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Kitobul-g'azaliyot (Kobul devoni). – Toshkent: Fan, 1982.
2. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
3. Ergashev, A. Mumtoz she'riyatda janr va uslub tabiati. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019.
4. Hasanov, S. Bobur merosining qo'lyozma manbalari tadqiqi. – Toshkent: Sharqshunoslik, 2015.
5. Quronov, D., Rahmonov, B. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent: Akademyashr, 2014.

6. To'xliyev, B. Maktabda adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
7. Yo'ldoshev, Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
8. Zaripov, M. O'zbek mumtoz she'riyatida lirik turlar va badiiy san'atlar evolutsiyasi. // O'zbek tili va adabiyoti jurnali. – Toshkent, 2021. - №3. – B. 45-51.
9. Sharopov, A. O'zbek adabiyotining ba'zi masalalari. – Toshkent: Fan, 1965. – B. 109-115.
10. Шаропов, А. Краткое сведение о лирике Бабура. // Звезда Востока. – Ташкент, 1968. – №4. – С. 112–118.

